



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
nameexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:13-12-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 134337

Obyekt nomi «Namangan viloyati Norin tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli 18-sonli oilaviy poliklinikasini (100 qatnov) rekonstruksiya qilish»

Buyurtmachi - Namangan viloyat hokimligining Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati DUK

Bosh loyihachi - "NAMANGAN IDEAL DIZAYN" MCHJ

Litsenziya AL-000989 26.06.2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Budget

Bosh pudratchi - Tender asosida

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 122788

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 11.09.2023 yildagi 83-sonli bayoni.

1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Namangan viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.3. Namangan viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 21.09.2023 yildagi 1714-1714216-92697-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.4. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari va muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi manfaatdor tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan materiallar.

1.5. "GEO VALLEY GOLD" MCHJ tomonidan 2023 yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.

1.6. Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan 2023 yilda bajarilgan bino-inshootlari texnik tekshiruvdan o'tkazish bo'yicha xulosa.

1.7. Ob'ekt loyihasining energiya samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha xulosa.

1.8. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 23.10.2023 yildagi 57864-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. "Ishchi loyiha"ning ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Poliklinika binosi. Arxitektura va qurilish, isitish va shamollatish, suv va oqavasuv ta'minoti, elektr yoritish, yong'in signalizatsiya, videokuzatuv, kuchsiz tok va jixozlash qismlari.
- Yordamchi bino va inshootlar (issiqlik punkti, avtomobillar uchun ayvon, 25 m³ hajmli oqavasuv o'rasi, 36 m³ hajmli yong'inga qarshi hovuzi, mufel o'choq, kul uchun o'ra, ko'mir saqlash ombori, kichik me'moriy inshootlar).
- Bosh reja va tashqi muhandislik tarmoqlari.
- Qurilishni tashkil etish loyihasi.
- Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Rekonstruksiya qilinayotgan 18-sonli oilaviy poliklinikasi Norin tumanida joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo'yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14°s. Me'yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa va shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida suglinki (qatlam qalinligi 7,7 metrgacha), 2-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 2,3 metrgacha) asos bo'lib xizmat qiladi. Yerning seysmik holati bo'yicha toifasi – III. Cho'kuvchanligi bo'yicha cho'kmaydigan tuproq turiga to'g'ri keladi. Yer osti suvlari yer sathidan 1,9-2,1 metrda aniqlangan. Yerni tuzilish reliefi – tekis.

3.2. Bosh reja.

18-sonli oilaviy poliklinikasining mavjud 1789,2 m² hududida joylashgan: loyihalanayotgan poliklinika binosi, issiqlik punkti, avtomobillar uchun ayvon, 25 m³ hajmli oqavasuv o'rasi, 36 m³ hajmli yong'inga qarshi hovuzi – 2 dona, mufel o'choq, kul uchun o'ra, ko'mir saqlash ombori, kichik me'moriy inshootlar. Yer maydonining chegaralari: shimol va sharqdan – aholi uylari bilan, g'arb va janubdan – ko'chalar bilan. Hudud obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi.

3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Poliklinika binosi (yangi qurilish).

Bino – 2 qavatli, yerto'lasiz, pishiq g'ishtdan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-G" va "1-7" o'qlari bo'yicha 13,8mx27,2m o'lchamda, xonalar balandligi – 3,0 m.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit tasmasimon va aloxida quyma temir-betondan, beton markasi V15.

Devorlar – pishiq g'ishtdan 380mm qalinlikda.

Pardadevor – GKL va gazobetondan.

O'zaklar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Ora va tomyopma – yig'ma temir-beton plitalar.

Tom – yog'och stropila va reykali to'qima asosida profnastil qoplama.

Zinapoyalar – yig'ma temir-betondan.

Derazalar – PVX profil.

Eshiklar – MDF va alyumin profil.

Vitrajlar – alyumin profil.

Pol – relin, keramik.

2. Avtomashinalar uchun ayvon (yangi qurilish).

Bino – 1 qavatli, yerto'lasiz, metall konstruksiyalardan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-B" va "1-2" o'qlari bo'yicha 5,5mx3,5m o'lchamda, balandligi – 2,5÷ 2,8m.

3. 36 m³ hajmli yong'inga qarshi suv xovuzi – 2 dona (yangi qurilish).

Hovuz – yaxlit quyma temir-betondan (beton markasi V20), to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, devorlari bo'ylab 6,25mx5,0m o'lchamda, chuqurligi – 3,10 metr.

4. 25 m³ xajmli oqava suv o'rasi (yangi qurilish).

O'ra – yaxlit quyma temir-betondan (beton markasi V10), to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, devorlari bo'ylab 4,96mx3,4m o'lchamda, chuqurligi – 2,10 metr.

5. Ko'mir saqlash ombori issiqlik punkti, mufel o'choq, kul uchun o'ra, kichik me'moriy inshootlar (yangi qurilish).

Ob'ektga avvaldan ishlab chiqilgan va individual loyihalar bog'langan.

Ichki muhandislik tarmoqlari.

Isitish va shamollatish.

Issiqlik ta'minoti manbai ko'mirga ishlaydigan issiqlik punkti hisoblanadi. Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchisi $T_1=90^\circ$, $T_2=70^\circ$ s parametrlarga ega bo'lgan suv bo'lib, isitish tizimi bir quvurli tizim etib loyihalangan. Tizimdan havoni chiqarib tashlash ta'minlangan bo'lib, bimetall turdagi radiatorlar isitish asboblari sifatida qabul qilingan. Isitish suvo'tkazgichlari polipropilen quvurlardan tashkil topgan. Shamollatish tabiiy va mexanik turtki bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Binolarga havo oqimi derazalar orqali kirishi ta'minlangan.

Ichimlik va oqava suv ta'minoti.

Binoda xo'jalik-ichimlik, oqavasuv va issiq suv ta'minoti tarmoqlari loyihalangan bo'lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta'minoti uchun quyosh suv isitgich qurilmalari nazarda tutilgan.

Elektr qismi.

Elektr ta'minotining ishonchililigi bo'yicha turar-joy binosi III toifadagi iste'molchilarga mansub. Loyihada 220V kuchlanish ishchi yoritish ko'zda tutilgan. Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshiriladi. Guruhli yoritish tarmog'i va quvvatli tarmoq VVGng-600, magistral tarmoq AVVG-660 kabelda loyihalangan. Loyihada ShRNm turdagi yoritish, PR turdagi quvvatli taqsimlash shitlarni o'rnatilishi hisobga olingan.

Yong'in signalizatsiyasi.

Loyihada yong'in signalizatsiya va yong'indan habar qilish (opovesheniya) jixozlarni o'rnatish ko'zda tutilgan. Yongin signalizatsiya tizimda qabul qiluvchi nazorat asbobi, yongin habarlagich, IPR turdagi qo'l habarlagichlari nazarda tutilgan. Yong'indan habar qilish chizmada tovush kuchaytirish asbobi, ovoz

chiqarish qurilmalari loyihalangan.

Ob'ekt ko'rsatkichlari:

Nomi	Qurilish maydoni (m ²)	Umumiy maydoni (m ²)	Qurilish hajmi (m ³)
Poliklinika binosi	391,92	659,26	3135,36
Avtomobillar uchun ayvon	21,0	19,5	52,5
Issiqlik punkti	7,26	6,93	20,35
Ko'mir saqlash ombori	19,68	15,04	49,21
36 m ³ hajmli yong'inga qarshi hovuzi (2 dona)	31,25	24,75	106,2
25 m ³ hajmli oqavasuv o'rasi	18,0	13,95	43,2
Kul uchun o'ra	8,41	6,25	12,0
Mufel o'choq	6,51	5,45	7,81
Jami	504,03	751,13	3426,63

Yong'in xavfsizligi.

Loyihada binoning o'tga chidamlilik darajasi o'tga chidamlilik chegaralari va inshootlarning yong'in guruhlariga javob berishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Yong'inni rivojlanishini oldini olish uchun yong'in signalizatsiyasi tizimi loyihalangan. Binodagi eshiklar odamlarni evakuatsiya qilish yo'nalishida ochiladi. Chordoq tomining yog'och konstruksiyalari olovga bardoshlilik va antiseptiklar bilan ishlov beriladi. Poliklinika hududida 2 dona 36 m³ hajmli yong'inga qarshi hovuzi qurish ko'zda tutilgan.

Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- pol ostiga zichligi $\gamma=35 \text{ kg/m}^3$, qalinligi 30 mm bo'lgan "penopolistirol" bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- devorlarga zichligi $\gamma=140 \text{ kg/m}^3$, qalinligi 50 mm bo'lgan bazalt asosli mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- tomga zichligi $\gamma=150 \text{ kg/m}^3$, qalinligi 140 mm bo'lgan mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- derazalar PVX dan qo'llanilgan;
- tomda 20 dona quyosh panellari ($20 \times 0,54 \text{ kVt}=10,8 \text{ kVt}$), 2 dona quyosh kollektori o'rnatish ko'zda tutilgan;
- yoritish svetodiodli chiroqlar hamda koridorlarni yoritish harakat datchiklari orqali bajarilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. *Suv ta'minoti* – "Namangan suv ta'minoti" MCHJ Norin tumani bo'limining 29.09.2023 yildagi 24-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud suv tarmog'i qabul qilingan.

4.2. *Oqava suv* – chiqindi suvlar uchun 25 m³ hajmli oqavasuv o'rasi qurish ko'zda tutilgan.

4.3. *Elektr ta'minoti* – "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Namangan hududiy filialining 26.09.2023 yildagi 35-18/1271-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 110/10kV li "To'da" dan chiqqan 10kV li "Toshqin" elektr uzatish tarmog'ining yaqin nuqtasi qabul qilingan. Loyihada KTPs-100/10/0,4 kv, AISKUE tizimi o'rnatish hamda hududni tashqi elektr yoritish tizimi qurish ko'zda

tutilgan.

4.4. *Issiqlik ta'minoti* – issiqlik tarmoqlari loyihalanayotgan issiqlik punktidan belgilangan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Namangan viloyat Arxitektura va shaharsozlik kengashining 13.11.2023 yildagi 79959-sonli xulosasi.
- Davlat ekologik ekspertizasi markazi Namangan viloyati filialining 13.11.2023 yildagi 01-19/05-1186/23-sonli xulosasi.
- O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi Namangan viloyat hududiy bo'limining 28.11.2023 yildagi 155-sonli xulosasi.
- "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Namangan hududiy filialining 23.11.2023 yildagi 35-33/0890-sonli xulosasi.
- "O'zenergoinspeksiyasi" Namangan viloyat boshqarmasining 27.11.2023 yildagi 1348-sonli xulosasi.
- Xonalar joylashtirish rejasi Norin tumani Tibbiyot birlashmasi hamda Norin tumani 18-sonli oilaviy poliklinikasi bilan kelishilgan.
- Buyurtmachining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish bo'yicha texnik kengashining 2023 yildagi yig'ilish bayoni.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarining izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- 6.1.1. Rasmiylashtirilgan topotasvir chizmasi – taqdim etildi.
- 6.1.2. O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi xulosasi – taqdim etildi.
- 6.1.3. Namangan viloyat Arxitektura va shaharsozlik kengashining xulosasi – taqdim etildi.
- 6.1.4. Davlat ekologik ekspertiza xulosasi – taqdim etildi
- 6.1.5. Buyurtmachining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish bo'yicha texnik kengashining yig'ilish bayoni – taqdim etildi.
- 6.1.6. Qurilishni tashkil etish loyihasi – ishlab chiqildi.
- 6.1.7. Bosh reja bino va inshootlar qaydnomasida umumiy maydoni – ko'rsatildi.
- 6.1.8. Xonalar joylashtirish rejasi Norin tumani Tibbiyot birlashmasi hamda Norin tumani 18-sonli oilaviy poliklinikasi bilan – kelishildi.
- 6.1.9. Umumiy ma'lumotlar varag'ida – o'zgartirildi.
- 6.1.10. Qirqimlarda GOST 21.501-2011 ga asosan tom qatlamlari – ko'rsatildi.
- 6.1.11. Pardadevorlar ishchi chizmalari – qayta ishlandi.
- 6.1.12. Ichki zina pol to'shamasini marmarga – almashtirildi.
- 6.1.13. Tashqi pardozlashdan "metalapeks" qoplamasi – chiqarib tashlandi.

- 6.1.14. Poydevor hisobi – taqdim etildi.
- 6.1.15. Ichki zina to'siq devorlari ShNQ 2.01.02-04 ning 5-jadvali asosan – o'zgartirildi.
- 6.1.16. Kotlovan va poydevor rejasi balandlik sathlari bilan – bog'landi.
- 6.1.17. Devorlar yoyilmasi chizmalari – ishlandi.
- 6.1.18. Ora va tomyopma rejasida kommunikatsiya shaxtalar o'rni – ko'rsatildi.
- 6.1.19. Ora va tomyopmalar rejasida yaxlit quyma uchastkalar chizmasi – ishlandi.
- 6.1.20. Hudud 9 ball zona inobatga olinib, QMQ 2.01.03-19 ga asosan konstruksiyaga o'zgartirish – kiritildi.
- 6.1.21. Loyihada tambur kengligi ShNQ 2.08.02-09* ga asosan – o'zgartirildi.
- 6.1.22. Tashqi evakuatsiya metall zina chizmalari – ishlandi.

Yordamchi bino va inshootlar.

- 6.1.23. Avtomashinalar uchun ayvon, mufel o'choq ishchi chizmasi – taqdim etildi.
- 6.1.24. Metal to'siq ustunlari va balandligi – optimallashtirildi.
- 6.1.25. Yong'inga qarshi suv saqlash xovuzi va oqava suv o'rasi chizmalari – qayta ishlandi.

Muhandislik ta'minoti.

Kuchsiz tok.

- 6.1.26. Binoda ShNQ2.01.02-04ning 6.1-talabi 6-bandiga asosan o'zidan yorug'lik chiqaruvchi bo'yoq (lyuminafor) yordamida evakuatsiya yo'llarini chiziqlar bilan belgilash – ko'zda tutildi, “chiqish” kabi avariya yoritish talablari bilan – jixozlandi.
- 6.1.27. Tashqi kuzatuv kameralar soni – o'zgartirildi.

Ichimlik va oqavasuv ta'minoti.

- 6.1.28. Aksonometrik sxemada quvurlarni nomlanishi – yoritildi, quvur balandlik o'lchamlari – berildi.
- 6.1.29. Chordoqda olib yurilgan suv quvurlari uchun issiqlik himoya qoplami – ko'zda tutildi.
- 6.1.30. 1-qavat 15 xona va 2-qavat 18 xonalarda pol sathida trap – o'rnatildi.
- 6.1.31. Jixoz va uskunalarga bo'lgan ehtiyoj jadvali – o'zgartirildi.

Isitish va shamollatish.

- 6.1.32. Binoning energopasporti – taqdim etildi.
- 6.1.33. QMQ 2.01.04-2018 ning 2.1* bandi 2b jadvaliga muvofiq issiqlik himoyalashning ikkinchi darajasi bo'yicha hisobi – taqdim etildi.
- 6.1.34. Tashqi issiqlik tarmog'i ishchi chizmasi – taqdim etildi.

Tashqi elektr ta'minoti.

- 6.1.35. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Namangan hududiy filialining va “O'zenergoinspeksiya” Namangan viloyat boshqarmasining xulosalari – taqdim etildi
- 6.1.36. 10kV li tarmoqni releli himoya hisoblari – bajarildi
- 6.1.37. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari – ko'zda tutildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko'ra buyurtmachining boshqa xarajatlari va qo'shimcha qiymat solig'i

(QQS) bilan 3871701,953 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 522827,642 ming so'mga kamaytirilib, **3348874,311 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	2524740,092	ming so'm
Asbob-uskunalar:	465326,257	ming so'm
QQS:	358807,962	ming so'm

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliliği yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan viloyati Norin tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli 18-sonli oilaviy poliklinikasini (100 qatnov) rekonstruksiya qilish" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: MIRZAYEVA MUYASSARXON QODIRJONOVNA

Ishtirokchi ekspertlar:

TURSUNOV ILYOSBEK YUNUSXONOVICH

KARIMOV IKROMJON GANIEVICH

BURXANOV NURILLO XAYRILLAYEVICH

ATAXO'JAYEV NOSIRXON NOYIMJONOVICH

TURSUNOV DONIYOR ISMONJANOVICH

Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich